



IJTIMOIIY TARBIYA TAMOYILLARI VA ULARNI AMALIYOTDA QO'LLASH USULLARI

Qilicheva Zulayho

Termiz davlat Pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim va Boshlang'ich ta'lim

fakulteti MTPP yònalishi 201-guruh

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarbiya tamoyillari, ushbu tamoyillarning yaratilishi tarixi va ularni amaliyotda qo'llash usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tamoyil, prinsip, tarbiya, ta'lim, tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lish tamoyili, gumanizm, tarbiyaning madaniyat bilan uyg'un bo'lish tamoyili, muhit, bola.

Ijtimoiy tarbiya insonlarning ijtimoiy hayotda to'g'ri va mazmunli o'rnini belgilash, ularni ijtimoiy normalar, qadriyatlar va jamiyatning maqsadlariga muvofiq rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayonning asosiy tamoyillari va amaliyotda qo'llanishi jamiyatni yanada barqaror va rivojlangan qilishga xizmat qiladi. Ijtimoiy tarbiya tamoyillari har bir shaxsni faqat ijtimoiy hayotda o'zini to'g'ri tutishiga o'rgatish bilan cheklanmay, balki uni ma'naviy, axloqiy va madaniy jihatdan boyitish hamdir.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi haqidagi g'oya antik davrlarda paydo bo'lgan va bizgacha Demokrit, Aflotun, Arastu asarlari orqali yetib kelgan. Tarbiyaning tabiat bilan



uygunligi haqidagi tamoyilni XVII asrda Yan Amos Komenskiy ta'riflagan va u XVIII-XIX asrlarda pedagogikada keng rivojlangan. XX asrda tabiat va inson haqidagi fanlarning rivojlanishi tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyilini ancha boyitdi.

Tarbiyaning madaniylashuvi zaruriyati g'oyasi ingliz pedagogi Jon Lok (XVIII asr), frantsuz mutafakkiri Klod Gelvetsiy (XVIII asr) va shvetsariyalik pedagog Iogann Pestalotsti asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. XIX asrda nemis pedagogi Fridrix Disterverg tomonidan berilgan ta'rifga asosan tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili madaniyatning umuminsoniy qadriyatlariga asoslanishi, u yoki bu milliy madaniyatlarning qadriyatlari va me'yorlariga mos bunyod etilishini ko'zda tutadi.

Gumanizm (lotincha *humanus* – insoniy) – insonni ulug'lovchi falsafiy ta'limot, insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligi barcha tuzumlar, davlatlar, jamiyatlar uchun asosiy faoliyat mezonini bo'lishi lozimligini ifodalaydigan tushuncha. Aksariyat G'arb mutaxassislari gumanizmning “antroposentrizm” (inson borliq mohiyatining asosiga qo'yilishi) g'oyasiga tayanishini e'tirof etadi.

O'rta asrlardagi gumanizm rivojini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- 1) ilk gumanizm – XIV asrning 30–90-yillari;
- 2) gumanizmning yuksalish davri – XIV asrning birinchi yarmi;
- 3) bevosita gumanistik talqindagi neoplatonizmning tarkib topishi – XV asrning ikkinchi yarmidan XVI asr boshlarigacha;
- 4) gumanizm g'oyalari mazmunidan chekinishlar va gumanizm harakatining so'nish davri – XVI asrning ikkinchi yarmi.

Tarbiya tamoyillari inson hayotida juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Har bir tamoyilga amal qilgan holatda tarbiya jarayonini amalga oshirish katta natijalarga erishishga imkon beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A AXMEDOV. IJTIOIY PEDAGOGIKA. "BUXORO DETERMINANT?" MCHJning Kamol nashriyoti, 2023-244 b.
2. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
3. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).
4. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64-67. <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652>
5. Гайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
6. Ne'matova Flora Baxtiyorovna, IJTIMOIY PEDAGOGIKA, O'quv qo'llanma, "FAN VA TA'LIM" nashriyoti, BUXORO-2022